

## **BINONING ASOSIY KONSTRUKTIV ELEMENTI DEVOR VA UNING TURLARI.**

**Davlatov Diyor Dilshodovich**

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Devor – binoning asosiy konstruktiv elementlaridan biri bo'lib, u tashqi muhit ta'siridan himoyalash va ko'p hollarda vertikal yuk ko'taruvchi konstruksiya vazifasini bajaruvchi hisoblanadi. Maqolaning asosiy mazmuni devorning turlari, ularning qay holatda ishlatilishi va ishlatilish afzalliklari haqida.*

**Kalit so'zlar:** *Devor, qurilish, konstruksiya, g'isht.*

Devor uyning tomini ko'tarib turuvchi yoki xonalarga ajratuvchi tik qismi. Bino va uylarda yuk tushuvchi devorga va faqat xonalarni ajratib turuvchi ichki va tashqi devorlarga bo'linadi. Tashqi devorlar o'z xususiy og'irligini, tom va qavatlararo orayopmalardan tushayotgan doimiy va vaqtincha yuklarni, shamol bosimi, asosning notekis cho'kishidan xosil bo'lgan deformatsiyalarni, seysmik ta'sirlar va boshqa ta'sirlarni qabul qiladi. Ushbu ta'sirlar ostida bo'lgan devor quyidagi talablarga: mustahkam, turg'un, fazoviy bikir, bino sinfiga mos keluvchi olovbardoshlilik darajasiga ega, xonadondagi lozim bo'lgan harorat va namlik rejimini saqlovchi, shovqin izolyatsiyalovchi, texnologik oson quriladigan va kam mehnat sarflanadigan, industrilashtirilgan, badiiy- me'moriy talablariga javob beradigan bo'lishi kerak.

☒ Devorlar ishlash harakteriga ko'ra

☒ O'z og'irligini ko'taruvchi

☒ Osma devorlar

☒ Parda devor

O'z yukini ko'taradigan devorlar- faqatgina o'z yukini poydrvorga uzatadi va tashqi to'siq vazifasini bajaradi. Bunda asosiy yuk ko'taruvchi element ustunlar hisoblanadi.

Osma devorlar – karkas ustunlariga ilintirilib, faqat xonani tashqi muhit ta'siridan himoyalovchi vazifani bajaradi.

Parda devorlar - ichki yuk ko'tarmaydigan devorlar bo'lib, bino xonalarini o'zaro ajratib turuvchi to'siq vazifasini ado etadi.

☒ Devor konstruksiyasi va terilishiga ko'ra quyidagicha bo'linadi.

• Mayda donali tosh elementlar, ya'ni g'isht, sopol, blok, mayda blokdan terilgan devorlar

• Yirik toshlar, ya'ni yani bloklardan terilgan devorlar

• Quyma va yig'ma devorbop panellardan yoki hajmiy bloklardan yig'ilgan devorlar.

Devorlari qurishda eng ko'p ishlatiladigan mahsulot bu g'isht hisoblanadi. G'isht devorlari juda kuchli, o'tga chidamli, zararkunandalar va parchalanish ta'siriga tobe emas shuning uchun bardoshlidir. Ular temir-beton taxta plitalardan foydalanishga imkon beradi.

G'ishtlarning kichik o'lchamlari ulardan murakkab konfiguratsiyalarning devorlarini qurish, jabhaning dekorativ elementlarini yotqizish imkonini beradi. G'ishtning yong'inga chidamliligi tufayli g'isht devorlari ichida tutun va shamollatish kanallari yotqizilishi mumkin. G'isht devorlari yuqori issiqlik quvvatiga ega va shuning uchun termal interiya – yozda har qanday issiqda ularning orqasida salqin, qishda esa isitishni o'chirgandan keyin ham uzoq vaqt davomida issiq bo'ladi. Lekin g'ishtning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. G'isht devorlari yuqori issiqlik quvvatiga ega va natijada termal inertiya, shuningdek, nisbatan yuqori issiqlik o'tkazuvchanligiga ega. Shuning uchun, agar uy qishda kamida ikki hafta davomida isitilmagan bo'lsa, uni qulay sharoitga qadar isitish uchun bir necha kun kerak bo'ladi.

Xorijiy davlatlarda armaturalangan toshlardan devor tiklanadi. Ayniqsa, ular seysmik hududlarda bino qurilishida qo'llaniladi. Bunda armaturani devorga ma'lum bir qadam bilan o'rnatiladi. Armatura diametric va sterjenlar qadami devorga tushayotgan yukka hisoblash va konstruktiv xususiyatlar asosida aniqlanadi.

G'isht asosiy devor materiallaridan biri hisoblanib, hozirgi turar-joy va jamoat binolarining 40 foizi g'ishtlardan tiklanadi. G'ishtli binolarga me'moriy va badiiy ko'rinish berishda katta imkoniyatlar bor. G'isht devorlar pishirilgan va silikat g'ishtlardan bunyod qilinadi. Standart g'isht o'lchami 250x120x65 mm qalinlashtirilgan g'isht o'lchami 250x120x88 mm ga teng bo'ladi. Bulardan tashqari markasi 75, 100, 125, 150, 200, 250 bo'lgan sopol g'ishtlar ham bo'lib, bunday g'ishtlar ichi kovakqilib tayyorlanadi, kovaklari ochiq yoki bir boshi ochiq bo'shliqlardan iborat bo'ladi. Devor g'ishtlari bo'yicha va ko'ndalang yotqizib terilishi mumkin. G'isht devor qalinligi 65, 120, 250, 380, 510, 640, 770 mm va undan katta bo'lishi ham mumkin. G'ishtlarning ma'lum tartibda terilishi bog'lash sistemasi ham deb ataladi. Xonani issiqlik saqlashini yaxshilash maqsadida esa devorga qo'shimcha ravishda issiqlikni ushlab turuvchi materiallardan foydalaniladi. Bularga steklovata va penopleks kabi mahsulotlarni kirgazsak bo'ladi.

Xulosa. Devor binoning asosiy konstruktiv elementlaridan biri hisoblanadi. Devor qanday bino qurilayotganiga qarab turli xil bloklar, quyma betonlar va pishgan g'ishtlar orqali barpo etiladi. Yashash xonadonlarining ichki qismlariga esa orayopma devorlardan ham foydalansa bo'ladi. Ayrim hollarda bu kabi devorlar gipsakarton orqali ham ajratib qo'yiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:**

1. Miralimov M.M “ Turar-joy va jamoat binolarining loyihalash asoslari”. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2010 y.
2. Зингир Б.И Встроенное оборудования для жилых зданий М.Строиздат.
3. Ojekov S.S., O'ralov A.S., Rahimov K.J Landshaf arxitekturasi va dizayn. Samarqand, 2003.